
“Obod mahalla, obod ko’cha, obod xonadon” dasturi – amalda

“Obod xonadon”, “Obod ko’cha” va “Obod mahalla” dasturlari asosida hudud infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta’minalash borasida Rishton tumanida ham keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu kunlarda “Pandigon” mahalla fuqarolar yig’inida obodonlashtirish va buniyodkorlik ishlariga katta e’tibor qaratilgan. Mahalladagi 4 ming 150 nafar aholi istiqomat qiladi. Dastlab aholi xonadonlari xatlovdan o’tkazilib, ko’p yillardan buyon yig’ilib kelayotgan muammolar o’rganildi. O’rganishlar davomida toza ichimlik suvi, yo’l ta’miri, elektr energiya va gaz ta’minoti, tibbiy yordam ko’rsatish va bandlik masalasi bilan bog’liq ko’plab muammolar aniqlanib, ularni hal etish yuzasidan “Yo’l xaritasi” ishlab chiqilib, keng ko’lamli ishlar davom etmoqda. Har bir ko’chada olib borilayotgan ishlar tuman hokimi va shtab rahbarlari nazoratida. Obodlik ko’ngildan boshlanadi, deyishadi. Pandigonliklar ham o’zлari yashab turgan xonadonlarni tartibga keltirish, hovli devorlarini ta’mirlash, tomorqasini ko’rkam, chiroyli qilish uchun astoydil harakat qilishmoqda.

2023-09-25 11:12:44